

YOSHLARNING ESTETIK DUNYO QARASHINI SHAKLLANTIRISHDA RANGRTASVIRNING O'RNI

Baxronova Odina Sharip qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti,
Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi magistranti
odinabaxronova2003@gmail.com

Annotatsiya. *Taqdim etilayotgan ilmiy maqola vatanimiz hududidagi rangtasvir san'ati namunalari haqida bo'lib, ulardan ba'zilari badiiy tahlil etilgan. Rassomlarning his-tuyg'u va fikrlari, rang-barang ijod olami tasviriy san'atdagi ro'y bergan o'zgarishlar hamda rangtasvir san'atini estetik jihatdan ta'lim va tarbiyada tutgan o'rni haqidagi fikr va mulohazalar ilmiy bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Afrosiyob, Bolaliktepa, Varaxsha, devoriy suratlar, rangtasvir san'ati, miniatyura, natyurmort, manzara, estetika, ta'lim va tarbiya, go'zallik.*

Аннотация: *Представленная научная статья посвящена примерам живописи на территории нашей страны, некоторые из которых художественно проанализированы. Он выражает чувства и мысли художников, изменения, произошедшие в мире красочного искусства, и роль живописи в эстетическом образовании и воспитании.*

Ключевые слова: *Афросиаб, Болаликтепа, Варахша, фрески, живопись, миниатюра, натюрморт, пейзаж, эстетика, образование и воспитание, красота.*

Abstract: *The presented scientific article is devoted to examples of painting on the territory of our country, some of which are artistically analyzed. It expresses the feelings and thoughts of artists, the changes that have taken place in the world of colorful art, and the role of painting in aesthetic education and upbringing.*

Keywords: *Afrosiab, Bolaliktepa, Varakhsha, frescoes, painting, miniature, still life, landscape, aesthetics, education and upbringing, beauty.*

Vatanimiz tarixida buyuk mo'yqalam sohiblari tomonidan yaratilgan tasviriy san'at asarlari, jumladan rangtasvir san'ati asarlari har biri kishi qalbida hayajon uyg'otib ularni o'tmishimiz bilan yaqindan tanishtiradi. O'tmish rangtasvir san'ati namunalari kishilarni go'zallikga chorlab, ularning estetik dunyo qarashini shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tariximizni qanchalik chuqur va yaqindan o'rgansak uning yuqori darajada rivojlangan sohalarini qatorida tasviriy san'atning ham o'z o'rni borligiga amin bo'lamiz. Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlarining tasviriy san'at orqali tarbiyalanishiga katta ahamiyat berilmoqda. Bu borada bolajonlarning ilk yoshlik davrlari, ya'ni bog'cha yoshidan boshlab e'tibor qaratilmoqda. Bolalar atrofidagi voqelikni o'zlaricha talqin qilib boradilar. Ularning tasviriy san'at bilan yaqindan tanish bo'lib borishlari dunyoni to'g'ri anglab olishlarida yordam beradi.

Rangtasvir-tasviriy san'at turlaridan biridir. Rangli bo'yoqlar yordamida tasvirlangan barcha tasvirlar ham rangtasvir bo'lavermaydi. Rangtasvir san'ati darajasida tasvirlar yaratish ijodkordan yetarli darajada bilim, ko'nikma, malaka va tajribalar talab etiladi. Har bitta bo'yoqdagi rangni topib joyida ishlatish oson ish emas. «Rangtasvir - asosan bo'yoqlar vositasida matoga, devorga shuningdek, tekislik va yuzalarga ishlanadigan san'at turidir. Tasvir mazmuni, xarakteri va shunga o'xshash barcha xususiyatlari bo'yoqlar orqali ifodalab berilsa rangtasvir san'ati deb ataladi. Tasviriy san'atning bu turida ijodkorning ichki kechinmalari, ranglarni bir-biriga me'yorida qo'shib ishlatish natijasida namoyon bo'ladi. Masalan, qizil va qora bo'yoqlar qo'shib ishlatilishi fojiaaviylikni aks ettirsa, och moviy va yashil ranglarni o'ziga xos bog'lash natijasida tinch va osoyishtalik holatlari tasvirlanishi mumkin».³⁰

Rangtasvir san'ati tarixi ibtidoiy odamning g'or devorlariga chizgan rasmlaridan boshlanadi. O'zbekiston hududida ham qadimdan ajdodlarimiz tamonidan yaratilgan rangtasvir namunalari kishilarni necha asrlardan beri o'ziga rom qilib kelmoqda. Bulardan eng qadimiylari ibtidoiy Zaravutsoy, Sarmishsoy kabi tasvirlar hisoblanadi. Bu tasvirlarda ov manzarasidagi turli rasmlarni ko'ramiz. Bular qadimgi odamlarning hayotini, turmush tarzini tasavvur qilishga yordam beradi. Rangtasvir san'atidagi yutuqlarni kulolchilik namunalari bo'laklarida, tuproq ostida saqlanib qolgan binolarning devorlariga ishlangan suratlarda batafsilroq ko'rish mumkin. Samarqandning qadimiy o'rni Afrosiyobdagi devoriy rasmlar, Buxorodagi Varaxsha, Surxondaryoda joylashgan Termiz yaqinidagi Bolaliktepa tasviriy san'at namunalari bunga misol bo'la oladi.

Afrosiyob nomi bilan yuritilayotgan qadimgi devoriy rasmlarda rangtasvir san'atining rang-barang va nafis namunalari mavjud. Rasmdagi tasvirlarda sharq xalqlariga xos ko'rinishlar ifodalangan. Bu suratlarni kuzatar ekanmiz, rassom devoriy rasmda keng manzarani qamrab olishga intilganini ilg'aymiz. Bu devoriy suratlar chizilgan xona mehmonxona ekanligi ma'lum. Rahim Hasanov "Tasviriy san'at asoslari" qo'llanmasida: "...Mehmonxonaning to'rt tamoniga turli devoriy rasmlar ishlangan. Mehmonxona devorlaridagi rasmlardan birida bir erkak va ayol suhbatlashib o'tirgani aks ettirilgan. Umuman, mehmonxonaning devorlarida to'y safari, daryoda cho'milish, elchilarni qabul qilish marosimi, ov kabilar aks ettirilgan. To'y safari aks etgan rasmda oq rangdagi filda malika, saman ot mingan shoh-kuyov aks etgan. Shuningdek malikani kuzatib ketayotgan kanizaklar ham tasvirlangan"³¹ deb yozadi. Teparoqda joylashgan manzarada oq qushlar tasviri esa devoriy suratga yanada badiiy mazmun kiritgan. Tasvirda oq qushlarning harakati bir-biriga uyg'unlashib ketganki bu manzarada o'ziga xos musiqiy ohang jaranglab turgandek. Kompozitsiyaning rangga boy qilib tasvirlanganligidan Afrosiyob tasviriy san'ati nihoyat darajada badiiy yutuqlarga ega ekanligini ko'ramiz. Devoriy suratlarning juda ko'p qismi turli sabablarga ko'ra o'chib ketgan. Tasvirlardagi turli qush va hayvonlar tasviri

³⁰ Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. Тошкент "Ўқитувчи", нашриёти, 1997. , 9-бет

³¹ Hasanov R. Tasviriy san'at asoslari. T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot matbaa –ijodiy uyi. 2009 y., b 64.

anatomik tuzilishiga mos aks ettirilgan. Bu esa musavvir mahoratidan darak beradi. (1-rasm). Afrosiyob devoriy rasmlari nafaqat tasviriy san'atimiz merosini, balki butun sharq xalqlari tarixini o'rganishda ham juda katta ahamiyatga ega.

Termiz yaqinidagi Bolaliktepa yodgorligidan topilgan bino devorlarining to'rtala tomoni ham turli ko'rinishdagi rangdor tasvirlar bilan to'ldirilgan. Bolaliktepa rangtasvir san'atida odamlarning kayfiyati, o'zaro munosabatlari, xarakterlari rassomlar tomonidan o'ta ustalik bilan tasvirlangan. Umuman obrazlarning xatti-harakati, qiyofalaridagi ko'rinishlar qandaydir to'y yoki bayramona marosimni aks ettirilganidan dalolat beradi. (2-rasm).

Buxoroning qadimgi madaniy markazlaridan biri – Varaxshadan ham devorlari suratlar bilan bezatilgan hashamatli saroy qoldiqlari topilgan. Bu me'morchilik obidasi va undagi san'at namunalari sharq xalqlariga xos madaniy aloqalar qay darajada bo'lganligini o'rganish imkoniyatini ham ko'rsatib beradi. Umuman, tasvirlar rang-barang manzaralar bilan boyitilgan va ma'lum bir go'zallikni o'zida mujassamlashtirgan. Devoriy suratlardagi tabiat manzaralari turli daraxtlar ko'rinishlari bilan o'zgacha ma'no kasb etgan.



1-rasm. Samarqand. Afrosiyob devoriy rangtasviri. VI-VII asr. (lavha).



2-rasm. Surxondaryo. Bolalik tepa. Devoriy tasvir. VI-VII asr

Umuman o‘tmish tasviriy san’ati, me‘morchilik san’atining ajralmas qismi bo‘lib kelganligi ma’lum. Nozik va nafis, rang – barang devoriy suratlar, haykaltaroshlik namunalari me‘morchilik san’atini boyitibgina qolmasdan, u bino va xonalarni nima uchun, kim uchun xizmat qilganini ham har tomonlama aniqlab bergan. Qadimgi musavvirlar o‘z hunarlarini tugal egallagan mohir san’atkor ekanliklarini ular yaratgan tasvirlarning me‘yoriga yetkazib ishlaganligidan, obrazlar xarakterlarini to‘laqlonliligidan yaqqol sezish mumkin. Albatta, qadimgi rassomlarning barcha tuyg‘u va fikrlari, shuningdek, rango – rang ijod olami va mo‘yqalamining sehrli tasvirlari to‘la – to‘kis bizgacha saqlanib kelmagan.

Vatanimiz hududiga Islom dinini kirib kelishi bilan tasviriy san’atda o‘ziga xos o‘zgarishlar ro‘y beradi. Yozma manbalarning yoritilishi bo‘yicha bir qancha vaqt rassomlar asarlarida jonli mavjudotlarni tasvirlashda cheklanishlar ro‘y beradi. Islom dini va tasviriy san’at haqida fikr yurutib, falsafa fanlari nomzodi dotsent N. Oydinov o‘zining “Rassom-o‘qituvchilar tayyorlash muammolari” monografiyasida shunday fikrlarni keltirib o‘tadi ...“islom dini va muqaddas Qur‘on kitobi tasviriy san’at asarlarini mutlaqo taqiqlagan degan fikrlarga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. Tarixdan ma’lumki, islom dini ta’limotini to‘la-to‘kis bilmagan ayrim shariat peshvolari xatti-harakatlari tufayli tasviriy san’atga nisbatan keskin fikrlar, hatto vahshiyliklar yuzaga kelgan. Yana shuni aytish kerakki, islom dinining keng tarqalishini ta’minlash uchun butlar, sanamlarni, xudo tasvirlarini keskin chegaralash ham zarur bo‘lgan”.³² Shu sababli bu davrda asosan turli tasvirlar o‘rniga amaliy san’at keng

³² Oydinov N. Rassom-o‘qituvchilar tayyorlash muammolari. T.: “O‘qituvchi”-“Ziyo-noshir”, 1997 y., b 81.

rivojlanganligi, me'morchilik amaliy bezak san'ati orqali, rangli naqshlar orqali bezatilishi nihoyat darajada rivojlangani kuzatiladi. "IX-X asrlarda O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib rivojlandi. Me'morchilikda g'isht qalab naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog'och o'ymakorligini qo'llash yuksak darajada rivoj topdi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch-naqshlar bilan juda nafis bezatiladi. Naqshlar murakkablashib bordi"³³. deb takidlaydi.

XI-XII asrlarda tasviriy va amaliy san'at bir-biri bilan o'zaro uyg'unlashgan holda rivojlangani ma'lum. San'atkorlar ijodida turli geometrik shakllardan tashqari, o'simliklar, hayvon va qushlar tasviri bo'lgan naqshlardan foydalanilgan. O'sha davr hukmdorlari va boy zadogonlarining qasr va uylari, mehmonxonalar devorlari suratlar bilan bezatilganligi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Bu suratlarda jang, ov manzaralari, qabul marosimlari va bazmlar tasvirlangan. O'rta Osiyoga Chingizxonni bosqinchilik yurishi vatanimiz hududida gullab-yashnab turgan san'at va madaniyatni vayron qiladi. Uning ijodkorlarini esa qirib yuboriladi.

Tasviriy san'atning eng katta va o'ziga xos taraqqiy etgan davri bu asosan Temuriylar davri hisoblanadi. Bu davr san'atining serqirraligi shundaki, ko'pgina xalqlar o'rtasida shakllangan tasviriy san'at maktablari markazlashgan bir qiyofasini aynan shu Temuriylar davrida topadi. Turli an'analarga, uslublarga ega bo'lgan tasviriy san'at maktablarining yaqinlashuvi uyg'unlashgan ilg'or Samarqand maktabining shakllanishiga sabab bo'ladi. O'z davrida Amir Temur Samarqandni yirik madaniyat markaziga aylatirgan. Bu yerda ko'plab bog'lar yaratilgan. Ayrim qasrlarning devorlari turli tasviriy san'at asarlari bilan bezatilganligi haqida fikrlar mavjud. "Devorga surat chizish san'ati Mirzo Ulug'bek zamonida yanada yuqori pog'onaga ko'tarildi"³⁴. Temur faoliyatidan so'ng esa Samarqandda Mirzo Ulug'bek davrida tasviriy san'at yanada rivojlanganligi bizga yozma manbalardan ma'lum. Umuman, bu tarixiy davrdagi tasviriy san'at asarlarining asosiy qismi bizgacha deyarli saqlanib qolmagan. Ammo ushbu davr tasviriy san'at namunalarining ma'lum va mashhurliigi ko'pchilikka sir emas.

Temuriylar zamonasida sharqona miniatyura san'atini bir qancha maktablari va uning buyuk ijodkorlari yuzaga keldi. Hirotda o'z davrida shakllangan 6«Nigoriston» maktabi jahon tasviriy san'ati maktablari ichida oldingi saflarda turadi. Aynan shu maktabda Kamoliddin Behzod buyuk musavvir sifatida kamolga yetgan. Kamoliddin Behzod sharq allomalari Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurahmon Jomiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy kabi mutafakkirlarning asarlarini tasvirlar orqali yanada jonlantirib targ'ib etadi. Kamoliddin Behzod ishlagan tasviriy san'at asarlari orasida Abdurahmon Jomiy, Husayin Boyqoro, Alisher Navoiy va Shayboniyxon suratlarini ham uchratish mumkin. Kamoliddin Behzod ijodining olamshumulligi shundaki, u o'chmas maktab yarata oldi. Uning

³³ Bo'latov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T.: "Mehnat", 1991y., b 143.

³⁴ Naim Norqulov, Ilyos Nizomiddinov. Miniatyura tarixidan lovhalar. Toshkent. G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashryoti. 1970 y., b 57.

ijodidan ilhomlangan Qosim Ali, Sulton Muhammad, Muzafar Ali, Yusuf Mullo, Rustam Ali, Mirsaid Ali, Mahmud Muzahhib, Abdullo kabi ko'pgina musavvirlar miniatyura san'ati va kitobat san'ati ravnaqi uchun xizmat qildilar. Keyingi davr miniatyurachi rassomlari haqida ma'lumotlar juda kam bo'lsada, ular yaratgan asarlar xorijiy davlatlardagi ko'pgina muzey va kutubxonalarning qimmatli xazinalari sifatida saqlanib kelmoqda.

“XVII asrda tasviriy san'at me'morchilikda ham keng ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu borada, ayniqsa, 1619-1635 yillarda qurilgan Samarqanddagi Sherdor madrasasi peshtoqiga ishlangan tasvirlar katta e'tiborga egadir”³⁵. Sherdor madrasasi peshtoqiga ishlangan tasvirlarda tasviriy va amaliy san'at uyg'unlashib jonli mavjudotlar ishtrokida mahobatli devoriy rangtasvir kompozitsiyalari yaratiladi. (3-rasm). Sherdor madrasasi peshtoqining naqshinkor kompozitsiyasi bilan uyg'un tasvirlangan va oftob fonida ohuga tashlanayotgan sherning surati jozibali bir ko'rinishda aks ettirilgan. Sher va ohuning tasviri chiroyli shakl, aniq, mazmun va ko'rinishga ega bo'lib qolmasdan, tabiat olamining sir-u asrorlarini eslatayotgan ramziy belgiga ham o'xshab ketadi.

XIX asrning oxirlarida va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekiston tasviriy san'ati o'zining yangicha shakllanish davriga asta-sekin kirib kela boshladi. Asosan bu davrga Yevropaning ilg'or tasviriy san'ati an'analari rus va boshqa xalqlarning vakillari orqali o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu yangi bosqichning xarakteri haqida alohida to'xtalish lozim. Miniatyuraga xos ishlanish uslublari va qonuniyatlaridan farqli o'laroq, Yevropa davlatlarida ancha ilg'orlab ketgan uch o'lchamlilik qonuniyatlari asosida rivojlangan bu tasviriy san'at aynan o'sha davrlarda bizning o'lkamizda deyarli mavjud emas edi. Ajdodlarimizning san'atga ixlosmand ilg'or vakillari esa ko'proq xalq amaliy bezak san'ati bilan mashg'ul bo'lganlar.



3-rasm. Samarqanddagi Sherdor madrasasi. XVII asr.

³⁵ Sh. B. Oydinov. Tasviriy san'at tarixi. Samarqand "Samarqan davlat chet tillar instituti". 2026 y., b 180.

50-60 yillardan boshlab, o'zbek tasviriy san'ati yangi pog'onaga qadam qo'yadi. Milliy san'at xususiyatlarining yanada mustahkamlanishi, san'atda milliy o'ziga xoslikni izlash bilan birga shaxsiy his-tuyg'ularni ifodalashga o'tib borilishi bilan xarakterlanadi. Rassomlar turli ramziy obraz va shartli belgilardan, rang, shakl, chiziq, faktura imkoniyatlaridan unumliroq foydalanishga harakat qiladilar. "Bu izlanish va tajribalar 50-yillarning oxiri, 60-yillarda san'at olamiga kirib kelgan, professional ta'limni Moskva, Peterburg, Toshkent oliygohlarida olgan ijodkorlar belgilaydilar. O'z ijodini ancha ilgari boshlagan san'at ahli ijodida ham g'oyaviy-plastik o'zgarishlar sezila boshlaydi. Bu davr izlanishlari milliy va jahon madaniy me'rosini qayta baholash, undan davrga mos yo'nalishlarni qo'llash imkoniyatlarini qidiradilar. Antik dunyo, o'rta asrlar madaniyati, Uyg'onish davri san'ati an'analari rassomlarni o'ziga tortdi. Shu bilan birga XX asr san'atida sodir bo'lgan jarayonlar ham rassomlar nazaridan chekkada qolmadi. Bu yillarda o'zbek san'atining yangi tur va janrlari rivojlandi"³⁶. XX asrning ikkinchi yarmida tasviriy san'at olamiga kirib kelgan taniqli ijodkor mo'yqalam sohiblari O'rol Tansiqboyev, Nikalay Karaxan, Malik Nabiyev, Mannon Saidov, G'ofur Abdurahmonov, Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Alisher Mirzayev, Akmal Ikromjonov, Temur Sa'dullayev, Damir Ro'ziboyev, Jo'ldosbek Quttimurodov, Ilhom Jabborov kabi ko'plab ijodkorlar faoliyati haqida fikr yuritish mumkin.

1991-yil O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritishi san'atning yangi davrini boshlab berdi. Muhimi, san'atda mafkuraviy nazorat bekor qilindi. Buning natijasida ijod erkinligini qo'lga kiritgan rassomlar uslubiy rang-baranglikda asarlar yarata boshladilar. Shu yillarda Vatanimizning mo'yqalam sohiblari, amaliy san'at ustalari va haykaltaroshlar ko'pgina ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, tasviriy va amaliy san'atimizni yanada kengroq namoyish eta boshladilar. "O'zbek san'atining yangi bosqichi mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. Huquq va erkinligini qo'lga olgan O'zbekiston o'zining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanishning ustuvor yo'nalishini belgilab, yangi iqtisodiy va ijtimoiy dasturni ishlab chiqdi. Jahon hamjamiyatida mavqeyini belgilab, xalqaro aloqalarni mustahkamladi"³⁷. Rangtasvir bu davrda ham yetakchi o'rinni egallab qoldi. Bu borada rassomlar yangi izlanishlar olib bordilar. Tarixiy mavzudagi asarlarda asosan realistik ko'rinishlar o'z aksini topa boshladi. Birinchi bor rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika san'atida xalq qahramonlari Alpomish, Spitamen, Goro'g'li siymolari ana shu mustaqillik yillarida yaratildi. Amir Temur hukmronlik qilgan davri malikalari qiyofasi tasviriy san'atda o'z aksini topdi. Milliy mavzuga e'tiborning kuchayishi tarixiy janr rivojiga katta ta'sir etdi. Temur va temuriylar davriga atab mustaqillik yillarda qator kompozitsiyalar vujudga keldi. Bu borada Malik Nabiyev, Chingiz Axmarov, Ne'mat Qo'ziboyev, Qutlug' Basharov, Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Sa'dulla Abdullayev, Erkaboy Masharipov, Alisher Aliqulov, Ortiqali Qazoqov va boshqa shu kabi mo'yqalam sohiblari to'laqonli asarlar yaratdilar.

³⁶ N. Abdullayev. O'zbekiston san'ati tarixi. "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti", 2007.,179 -bet.

³⁷ N. Abdullayev. O'zbekiston san'ati tarixi. "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti", 2007.,202-bet

Rassom Malik Nabiyevda “Amir Temur portreti”ni yaratish istagi 1941-yilda paydo bo‘ladi. Afsuski bu davr “Sohibqiron Temur”ning obrazini yaratishga imkon bermas edi. Rassom ellik yildan ortiq vaqt ichida Amir Temur obrazini har tamonlama o‘rganib ilmiy izlanishlari asosida materiallar to‘plab boradi. Mustaqillikga erishgan yillarimizdanoq Vatanimiz tarixida ilm fan, san‘at, madaniyat, adabiyot, ma‘naviyat va ma‘rifatga bo‘lgan e‘tibor oshdi. Natijada bunyodkorlik ishlariga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan buyuk ajdodlarimizni anglay boshladik. Mo‘yqalam sohibi M. Nabiyevga ham bu vaqtda “Sohibqiron Temur” obrazini yaratish uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Musavvir bu davr imkoniyatlardan unumli foydalangan holda “Sohibqiron Temur” obrazini yaratishga jiddiy kirishadi. Xullas bu borada ko‘plab ishlagan xomaki rasmlari, qalamchizgilari, ranglavhalari, rangtasvir va kompozisiyalaridan foydalanadi. Rassom o‘zining fiklariga to‘la ishongandan so‘ng, tarixiy dalillarga tayangan holda bu portretni rangtasvirda nihoyasiga yetkazishga muvaffaq bo‘ladi. “Sohibqiron” siymosi jamlangan portretida takrorlanmas obrazni ko‘ramiz. (4-rasm). Portretida bamaylihotir qilichga suyangan holda tasvirlanishi Sohibqironning mashaqqatli jangu-jadallardan mardonavor o‘tganligini bildirib turibdi. Portretidagi Amir Temur qiyofasida mag‘rurlik va kuch-qudratga ega ekanligi uning xotirjam holatida aniq gavdalangan. Asarning orqa fonida sharqona bezatilgan shoh saroyining bir bo‘lagi derazadan Samarqand shahrining manzarasi ko‘rinadi. Devordagi fonda naqshin bezaklar, Sohibqiron o‘tirgan saltanat kursisining badiiy boyligi, shuningdek Amir Temur egnidagi liboslarning boy ko‘rinishi tomoshabinni zamona haqida to‘liqroq tushunchaga ega bo‘lishiga yordam beradi. Amir Temur egnidagi oq zarrin oltin bezakli xalat tarzidagi libosi o‘ziga xos bir jiddiy ma‘noni ifodalaydi. Bu go‘yoki uzoq davrdan so‘ng mustaqillik tufayli Amir Temurning pok g‘oyalari, jumladan adolatli faoliyati yorug‘likka chiqqanini hikoya qilayotgandek.

Malik Nabiyev buyuk inson Amir Temur obrazini tasvirlash borasida katta muvaffaqiyatni qo‘lga kiritadi. Temurni ilm, san‘at ahillariga homiylik qilgan ma‘rifat homiysi ekanini ham ifodalay oldi. Xullas, Malik Nabiyev sharqona xarakterga ega bo‘lgan Amir Temurni uzoq va mashaqqatli jangu jadallardan so‘nggi holatdagi obrazini tasvirlashga erishgan.



4-rasm. Malik Nabiyeu. “Sohibqiron Temur” portreti.

O‘zbekiston hududidagi rangtasvir san’at namunalari, yurtimiz ahlining ajdodlari, juda ko‘hna va boy madaniyat va san’at sohibi ekanligidan, ularning yuksak badiiy saviyada asarlar yaratganligidan darak berib turibdi. Maromiga yetkazib ishlangan rangtasvir asarlari kishi ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta’sir etishini so‘z bilan ifoda etish qiyin. Albatta har – bir tasviriy san’at asarini ko‘z bilan ko‘rib, qalb bilan sezish, his etish kerak.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Ойдинов Н. Ўзбекистон тасвирий санъати тарихидан лавҳалар. Тошкент “Ўқитувчи”, нашриёти, 1997.
2. Hasanov R. Tasviriy san’at asoslari. Toshkent G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa –ijodiy uyi. 2009 y.
3. Oydinov N. Rassom-o‘qituvchilar tayyorlash muammolari. Toshkent “O‘qituvchi”-“Ziyo-noshir”, 1997 y.
4. Bo‘latov S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. Toshkent “Mehnat”, 1991y.,
5. Naim Norqulov, Ilyos Nizomiddinov. Miniatyura tarixidan lovhalar. Toshkent G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashryoti. 1970 y.
6. Sh. B. Oydinov. Tasviriy san’at tarixi. Samarqand “Samarqan davlat chet tillar instituti”. 2026 y.
7. N. Abdullayev. O‘zbekiston san’ati tarixi. “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti”, 2007.